



ZULFIYANING “BAHOR KELDI SENI SO‘ROQLAB” SHE‘RINING BADIY TAHLILI

Qodirova Xurshida

Urganch Ranch texnologiya universiteti

Pedagoika va filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola Zulfiya Isroilovaning “Bahor keldi seni so‘roqlab” she‘rining badiiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shoiraning tabiat va inson ruhiy holatini ifodalashdagi san’ati chuqur o‘rganiladi. She‘rda bahor fasli bilan bog‘langan tasvirlar va hissiyotlar orqali insonning ichki dunyosidagi o‘zgarishlar, yangi boshlanishlar va orzu-havaslar aks ettirilgan. Maqolada, shuningdek, Zulfiyaning she‘rdagi ma’nolarni qanday qilib tabiiy elementlar yordamida mukammal tarzda ifodalashga muvaffaq bo‘lgani tahlil qilinadi. Shuningdek, she‘rning simvolik yuki, poetik obrazlar va musiqiy ritmlari ham alohida e’tiborga olinadi.

Kalit so‘zlar: Badiiy tasvir, simvolizm va metafora, she‘riy obrazlar, lirik qahramon, tashbeh, ijtimoiy va falsafiy kontekst, she‘riy ritm va melodiya.

Zulfiya Isroilova — o‘zining badiiy mahorati, samimiy va chuqur lirizmi bilan o‘z o‘rnini mustahkamagan buyuk shoira. Uning she‘rlari nafaqat o‘sha davrning ruhini aks ettiradi, balki insonning ichki dunyosidagi eng nozik tuyg‘ularni, orzularni va umidlarni ifodalaydi. Zulfiya she‘riyatida har bir so‘zning ma’nositeran va ko‘p qatlamlı bo‘lib, o‘quvchini yangi bir dunyoga olib kiradi. Shoira o‘zining ijodida tabiat, muhabbat, yig‘lash, umid va qayg‘u kabi universal mavzularni o‘ziga xos tarzda tasvirlab, har bir misrani hayotning bir qismiga aylantiradi. Uning badiiy uslubi, poetik tasvirlari, teran ma’no va obrazlarga boy



she’rlari, zamonasi va o‘qish mavzularining doimo dolzarb bo‘lishi bilan ajralib turadi. Zulfiya Isroilova she’rlari nafaqat o‘z davrining balki barcha davrlarning adabiy merosiga qo‘shilgan yuksak hissadir.

Zulfiyaning “Bahor keldi seni so‘roqlab” she’rini tahlil qilishda, biz shoirning ifoda vositalari, tasviriy elementlari va tematik jihatlarini chuqurroq o‘rganishimiz kerak.

She’rda bahor mavzusi orqali ayriliq, izlash va sevgi tushunchalari tasvirlangan. She’rning asosiy qahramoni - lirk qahramon, Hamid Olimjonni bahor orqali izlaydi. Bahor o‘zining yangi hayotga qadam qo‘yishi, gullarning ochilishi va tabiatning uyg’onishi orqali sevgi va umidga to‘lib, sevgini qaytarishni istaydi. Bahorning yo‘li bilan sevgi va izlanishlar muhokama qilinadi.

She’rda bahor tabiatning yuksalishi, o‘zgarmas vaqtлага qarshi kurashgan holda yangi umidlarni, sevgi va hayotni keltiruvchi shaklda ifodalanadi. Bahor - faqat fasl emas, balki hayotning o‘zgarishiga, tuyg‘ularga, sevgi va qayg‘uga qarshi kurashishning ramzi sifatida kiritilgan.

Quyidagi qatorlar bu fikrni tasdiqlaydi:

Salqin saharlarda, bodom gulida,

Binafsha labida, yerlarda bahor.

Qushlarning parvozi, yellarning nozi,

Baxmal vodiyarda, qirlarda bahor...

Bu yerda bahor tasvirlari orqali tabiatning uyg’onishi, go‘zalligi va yangi boshlanishlarning ramzi sifatida ishlatilgan.

She’rda lirk qahramon bahorning yangilanishi orqali sevgilisini izlaydi. U o‘zining sevganini ko‘rish uchun barcha imkoniyatlarni sinab ko‘radi, uning



so‘nggi izlari to‘g‘risida izlanadi. She’rda ba’zi bir sabr va umidlar singari his-tuyg‘ular, sevgan kishining yo‘qligi bilan bog‘liq g‘am va alamni tasvirlaydi.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,

Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.

Qishning yoqasidan tutib so’radi seni,

Ul ham yosh to’kdi-yu, chekindi nari.

Bu qatorlarda lirik qahramonning sabr-toqati tugagan va uning sevgilisi ko‘rish istagi o‘ta kuchli bo‘lganligini ko‘rsatadi.

She’rda bahor, gullar va tabiatning turli elementlari simvolik ma’noga ega. Masalan, “**o‘rik gullarining maftuni**” va “**yosh kuydirgan za’far**” kabi tasvirlar, lirik qahramonning ichki dunyosidagi sevgi va izlanishlarni ifodalaydi. Bahor - nafaqat tabiatning o‘zgarişı, balki sevgining qidirilishi va qaytarilishining ramzi sifatida ishlatilgan.

O’rik gullarining eding maftuni.

Topmay, sabri tugab bo’ron bo’ldi-yu,

Jarliklarga olib ketdi boshini.

She’rda tashbehtarlar (o‘xshatishlar) orqali sevgi va tabiat tasvirlari kuchaytirilgan. Qatorlarda shoira o‘zining sevgilisi yoki bahor orqali dunyoni va his-tuyg‘ularni izohlashda tashbeh va o‘xshatishlardan foydalanadi.

“Farhod tog’laridan daraging izlab,

Soylarga qulatdi tog’ning toshini.”

She’rda oddiy va tizimli ritm mavjud bo‘lib, o‘quvchini qayta-qayta takrorlanadigan qatorlar orqali tabiatning o‘zgarishini va qayg‘ularni his qilgan



holda ruhiy holatni ko'rsatadi. Tabiat va insonning birlashgan obrazlari she'rni chuqur, hissiy va melodik qiladi.

Yana yel bo'ldi-yu, kezib sarsari,

Mendan so'ray ketdi qalbimni tilib.

She'rda lirik qahramon o'zining sevganini izlab, o'zi va dunyo haqidagi fikrlarni ifodalagan. She'rning ijtimoiy konteksti ham mavjud: qishning sovuqligi va bahorning yangi boshlanishi, insonning ichki holati va muhabbatni qidirishi o'rtasidagi o'xshashliklar ko'rsatilgan.

"O'limgan ekansan, jonim, sen hayot,

Men ham hali sensiz olmadim nafas."

Bu qatorlarda sevgan insonning yo'qligi, uning ruhiy holati va hozirgi vaqtdagi izlanishlari aks etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, shoiraning "Bahor keldi seni so'roqlab" she'rda bahor, tabiat va sevgi orasidagi chambarchas bog'lanishlar chuqur tasvirlangan. Bahor, tabiatning yangilanishi orqali shoir o'zining sevganini izlashda, his-tuyg'ulari va ichki kechinmalarini ifodalashga muvaffaq bo'lgan.

She'rda badiiy tasvirlar, tashbehlar, metaforalardan keng foydalanilgan va bu elementlar orqali sevgi, ayrılıq, izlanish, qayg'u kabi hissiy holatlar aniq va kuchli ifodalanadi. She'rda ishlatilgan ifodalar, tasvirlar va simvollar lirik qahramonning ruhiy holatini o'quvchiga ta'sir qiluvchi tarzda yetkazadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Adham Akbarov. Zulfiya. T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985 yil



2. N.Mirzayeva va M.Shamsiyeva.Bahor, muhabbat va sadoqat kuychisi: metodik-bibliografik qo'llanma - Samarqand : A.S.Pushkin nomidagi Axborot-kutubxona markazi nashriyoti, 2023. – 39 b.

3.Nurali Qobil. Sadoqat saroyining mangu malikasi Zulfiyaxonim Hamid Olimjonning so'ngsiz armoni.(Esse va she'rlar)-T.:”Sano-standart” nashriyoti, 2018.-128 b.